

TUGALLANGAN IKKI TURDAGI IQTISODIYOT

Abduxoliqov Kamoliddin Maxammadjonovich
O'zsanoatqurilishbank ATB Korporativ Markaz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iqtisodiy o'sishda ijtimoiy-iqtisodiy modellar, Janubiy Koreyaning samarali rivojlanish tajribasi, O'sishning sekinlashish sabablari haqida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Biznes, iqtisodiy o'sish, Janubiy Korea mo'jizasi, taqsimlash va savdo, ijtimoiy soha.

Iqtisodiyot — bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi.[1]

Asosiy qism: Bugungi kunda dunyoda qashshoqlik va kambag'allikka barham berish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash muammolari markaziy o'rinda turibdi. Soni o'sib borayotgan aholi uchun mos, to'yimli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalana olishni ta'minlash deyarli barcha halqlar to'qnash kelayotgan eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o'sishi va kam ta'minlanganlikni qisqartirish nazarda tutiladi. Iqtisodiy o'sish, jumladan uning sifati to'g'risidagi masala mamlakat, uning mintaqalari, umuman biror-bir ijtimoiy tizimning rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun ham juda muhim. Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollarini prognozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish resursllarning cheklanganligi muammosini hal etish uchun sharoit yaratadi.[2]

Iqtisodiy o'sishda shunday omillarham borki, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash qiyindir. Masalan, AQSH ning boy tabiiy zaxiralaridavlatning iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shgan. AQSHda mo'l hosil yetishtirish uchun tabiiy sharoitlar, energetik zaxiralar, mineral va boshqa resurslar ko'p. Ushbu zaxiralarni



hajmi jihatdan AQSHga faqatgina Rossiya yoki Kanadani tenglashtirish mumkin. Lekin tabiiy resurslarning o'ziga iqtisodiy o'sishni ta'minlab berolmaydi. Tabiiy resurslari kam bo'lgan davlatlarda ham iqtisodiy o'sish tez sur'atlarda bo'lishi mumkin. Masalan Yaponiya cheklangan resurslarga ega bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin tez sur'atlarda rivojlandi. Bundan tashqari shunday omillar ham borki ularni baholashning umumaniloji yo'q, masalan AQSHning iqtisodiy o'sishiga davlatdagi umumiy ijtimoiy, madaniy va siyosiy muhit ham munosib o'rin egallagan. AQSHda boshqa davlatlarga nisbatan ijtimoiy, ma'naviy cheklashlar deyarli yo'q, rivojlanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Amerikaliklar orasida biznesmen, novator, kashfiyotchilar katta hurmatga ega.

Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida Ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element — mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'li-shini taqozo etadi.[3]

Koreya urushi 1953 yili tugadi. Biroq ikkala taraf ham tinchlik bitimini rasman imzolamasdan, otashkesim e'lon qilishgan. Urush oqibatida Janubiy Koreya iqtisodi butunlay vayron bo'lgan edi va yalpi ichki maxsuloti miqdori aksar Afrika mamlakatlaridan ham past edi. Bugun Janubiy Koreya dunyoda gurkirab rivojlanayotgan yirik iqtisodlardan biri. Bu kabi yuksak yutuqlarga mamlakat kam tabiiy boyliklari bilan ham erisha oldi. Hozirda bu o'lka neft import qilayotgan mamlakatlar orasida to'rtinchi o'rinni egallab turibdi. Janubiy Koreyaning iqtisodiy fenomenini qanday tushuntirib berish mumkin? Seulda joylashgan joylashgan Ixva universiteti professori Jasper Kim yutuqlarga erishish jarayonida yetakchi rol o'ynagan uchta muhim omilni ta'kidlab o'tdi.

O'z kuchiga tayanish: Janubiy Koreya bugungi kunda erishgan boyligini deyarli yo'q narsa ustida yaratdi, deb aytish mumkin. Biroq bu mamlakat o'zining yagona zaxirasini ustalik bilan ishga soldi. Bu - uning aholisi, odamlar – insoniy zaxiralardir.

Ham hukumat, ham aholi ish kuchi o'ta ma'lumotli bo'lishining ahamiyatini yaxshi anglab olib, milliy malaka oshirish dasturiga barcha vositalarini tashladilar.



Amalga oshirilgan dastur katta muvafaqiyatlarga yetakladi. Buning natijasida mamlakatda yuqori ma'lumotli va o'ta malakali muhandis va xizmatchilarning butun boshli armiyasi paydo bo'ldi. Ular ishlab chiqarish tizimining poydevorini tashkil etdilar. O'z navbatida iqtisod bu kuchga tayanib gurkirab rivojlana boshladi.

Erishilgan maqsad har qanday chorani oqlaydi. 1961 yili mamlakatda sodir bo'lgan harbiy to'ntaruv oqibatida Prezident Pak Chon Xi hokimiyatga keldi. U davlat tepasida o'n sakkiz yil o'tkazgan davr muddatida industrial takomillashtirishga qaratilgan dastur to'liq amalga oshirilib, bugungi kundagi taraqqiyotga olib keldi. Shu bilan bir vaqtda u qattiqqo'l siyosat tarafdori edi. Mamlakatda harbiy holat o'rnatgan va ko'proq vakolatlarni qo'lga kiritish maqsadida konstitutsiyani o'zgartirgan siyosatchi sifatida ham tarixda qoldi. Biroq qo'lidagi bor hokimiyatdan foydalanib, u korruptsiyaga botgan, deb o'ylagan mahalliy korchalonlarni mamlakat sanoatiga, xususan kemasozlikka sarmoya kiritishga majbur qilgan edi. Professor Kinga ko'ra, bugun zamonaviy Koreya jamiyati, bir tomondan, Pakning boshqaruv usulini qabul qila olmaydi. Biroq, boshqa tomondan, aynan ushbu boshqaruv usuli urushdan vayron bo'lgan mamlakat iqtisodini 1960-70 yillarda oyoqqa turg'azishda o'zini oqlagan. Pakning diktatorlik boshqaruvi 1979 yili uning o'ldirilishi bilan tugagan. Janubiy Koreyani hozirda uning qizi Pak Kin Xe boshqarib keladi.

Biznes - oilaviy ish. Janubiy Koreya erishgan iqtisodiy yutuqlarni "Chebol" deb nom olgan tizimsiz tasavvur qilish qiyin. Mazkur tizim rasman mustaqil bo'lgan bir necha shirkatlar guruhi bitta oilaning ma'muriy va moliyaviy nazorati ostida bo'lishini ifodalaydi. Jahonda bunday tizimlardan eng mashhuri - "Samsung" korporatsiyasi 1938 yildan boshlab Li oilasining qo'lidadir. Uning hozirgi rahbari 72 yashar Li Gon Xi boshqaruv jilovini o'z otasidan 1987 yili qabul qilib olgan edi. Uning eng munosib vorisi 46 yoshli o'g'li Li Dje Yon deb hisoblanadi.[4]

Xulosa qilib aytganda iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishni takomillashtirish, iqtisodiyotda progressiv o'zgarishlar va qayta qurishlarning muhim shart-sharoitidir. Iqtisodiy o'sishga tashqi omillarning tasiri yuqori bunga misol etib esa Korea mo'jizasini ko'rishimiz mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.academia.edu/9294719>

2. [https://e-](https://e-library.namdu.uz/Namangan%20Davlat%20Universiteti%20professor%20va%20o'qituvchilarining%20adabiyotlari/%D0%8E%D2%9B%D0%B8%D1%82%D1%83%D0%B2%D1%87%D0%B8%D0%BB%D0%B0%D1%80%20%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%B4%D0%B0%D0%BD%20%D0%B1%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%BB%D0%B3%D0%B0%D0%BD%20%D0%B0%D0%B4%D0%B0%D0%B1%D0%B8%D1%91%D1%82%D0%BB%D0%B0%D1%80/Iqtisodiy_o'sish_Mamatov_2021_%5B@iqtisodchi_kutubxonasi%5D.pdf)

[library.namdu.uz/Namangan%20Davlat%20Universiteti%20professor%20va%20o'qituvchilarining%20adabiyotlari/%D0%8E%D2%9B%D0%B8%D1%82%D1%83%D0%B2%D1%87%D0%B8%D0%BB%D0%B0%D1%80%20%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%B4%D0%B0%D0%BD%20%D0%B1%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%BB%D0%B3%D0%B0%D0%BD%20%D0%B0%D0%B4%D0%B0%D0%B1%D0%B8%D1%91%D1%82%D0%BB%D0%B0%D1%80/Iqtisodiy_o'sish_Mamatov_2021_%5B@iqtisodchi_kutubxonasi%5D.pdf](https://e-library.namdu.uz/Namangan%20Davlat%20Universiteti%20professor%20va%20o'qituvchilarining%20adabiyotlari/%D0%8E%D2%9B%D0%B8%D1%82%D1%83%D0%B2%D1%87%D0%B8%D0%BB%D0%B0%D1%80%20%D1%82%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%B4%D0%B0%D0%BD%20%D0%B1%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%BB%D0%B3%D0%B0%D0%BD%20%D0%B0%D0%B4%D0%B0%D0%B1%D0%B8%D1%91%D1%82%D0%BB%D0%B0%D1%80/Iqtisodiy_o'sish_Mamatov_2021_%5B@iqtisodchi_kutubxonasi%5D.pdf)

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarish

4. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/01/150129_latin_koreya_miracle



Research Science and Innovation House

